SHOIRA- DILDORA O XBO‘TAYEVA IJODIGA CHIZGILAR

Zarina Olimova:

Buxoro Shahridagi 45-umumta’lim maktabi O‘qituvchisi

Annatatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining sermahsul vakillaridan biri Dildora Oxbo‘tayeva ijodida muhabbat mavzusining badiiy-falsafiy talqini tahlil etilgan. Shoiraning lirik asarlarida muhabbat, sog‘inch, hijron, visol, umid va ruhiy kechinmalarning o‘ziga xos ifodalanishi hamda lirik qahramon ruhiyatining badiiy tasviri yoritilgan. Tadqiqot davomida “Dilginamga dildosh ber, Xudo” va “O‘ylayapsizmi” she’rlaridan olingan parchalar asosida ijodkorning tashbeh, jonlantirish, istiora va boshqa badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati tahlil qilingan. Shoiraning “ko‘ngil kitobi”, “ko‘ngil oftobi”, “tuyg‘ularim ummonning rangi”, “gumonning jangi”, “orzularim quchar belanchak”, “dilda sog‘inch uchar halinchak” kabi poetik obraz va ifodalari uning individual lirik uslubini namoyon etishi asoslangan. Maqolada Dildora Oxbo‘tayeva she’riyatida muhabbat mavzusining yetakchi o‘rin tutishi, ishq va hijronning inson ruhiyatiga ta’siri hamda poetik obrazlar orqali nozik tuyg‘ularning ta’sirchan ifodalanishi ochib berilgan.

Annotation

This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the theme of love in the works of Dildora Oxbo‘tayeva, one of the prolific representatives of contemporary Uzbek poetry. It explores the distinctive expression of love, longing, separation, reunion, hope, and emotional experiences in the poet’s lyrical works, as well as the artistic portrayal of the inner world of the lyrical persona. In the course of the study, excerpts from the poems “Dilginamga dildosh ber, Xudo” (“O God, Grant My Heart a Kindred Soul”) and “O‘ylayapsizmi” (“Are You Thinking?”) are analyzed to examine the poet’s skillful use of simile, personification, metaphor, and other literary devices. It is substantiated that poetic

images and expressions such as “the book of the heart,” “the sun of the heart,” “the color of my feelings is the color of the ocean,” “the battle of doubt,” “my dreams embrace the cradle,” and “longing flies like a swing in the heart” demonstrate the poet’s individual lyrical style. The article reveals the prominent place occupied by the theme of love in Dildora Oxbo‘tayeva’s poetry, the impact of love and separation on the human psyche, and the expressive representation of subtle emotions through poetic imagery.

Kalit so‘zlar:

Dildora Oxbo‘tayeva, zamonaviy o‘zbek she’riyati, muhabbat, lirik qahramon, ishq, hijron, sog‘inch, visol, badiiy tasvir vositalari, tashbeh, jonlantirish, poetik obraz, lirik kechinma.

Barchamizga ma’lumki, Shoirlar ijodida muhabbat tasviri hamisha she'riyatning markaziy o'rni bo'lib kelgan. Bu tuyg'u nafaqat ikki inson o'rtasidagi munosabat, balki koinot bilan uyg'unlik, ilohiy ishq va ruhiy yuksalishning ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Har bir davr shoiri muhabbatni o'zining dunyoqarashi, madaniy muhiti va shaxsiy kechinmalari prizmasidan o'tkazib, yangicha talqin qiladi. Klassik sharqona g'azallardan tortib, bugungi zamonaviy erkin she'riyatgacha bo'lgan jarayonda sevgi falsafiy va estetik mohiyatini saqlab qoladi. Barcha ijodkorlar kabi bugungi kunda sermahsul ijod qilib kelayotgan D.Oxbo’tayeva She’rlarining aksariyat mavzusi ham muhabbat haqidadir.

Oxbutayeva Dildora Zoirovna, 1989-yil 2- dekabrda Samarqandda tug‘ilgan.

1996-yildan to 2008- yilgacha Samarqand shahrida joylashgan 59-sonli Ko‘zi ojiz bolalar maxsus maktab-internatida tahsil olgan.

2008-2012-yillar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida o‘qidi.

2012-2014- yillar Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universitetining O‘zbek filologiyasi fakulteti Adabiyotshunoslik yo‘nalishi

Magistratura bosqichini muvaffaqiyatli tugatdi.

2022- yildan buyon , Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 11- sonli “Nurli maskan” maktab-internatida zaif ko‘ruvchi va ko‘zi ojiz bolalarga Ona tili va Adabiyot fanidan saboq berib kelmoqda.:

“Qahratonda gullagan yurak”, [2011], “Tuyg‘ular raqsi”, [2014] “Sarhadsiz sog‘inchlar” [2024] nomli she’riy to‘plamlari nashrdan chiqqan.

“Yoshlar bayozi” 2009- yil “Nurli ko‘ngil- nurli yo‘l” 2012- yil, “Munir qalblar armug‘oni” 2022- yil, “Ko‘ngil kutubxonasi” 2024- yil, “Ijodiy parvoz” 2024- yil, “Yurt bayrog‘i yuragida hilpiraganlar” 2024- yil, “Ijodiy parvoz”,2024- yil, “Izhorlarim sizga atalgan” Horijda nashr qilingan to‘plam 2024- yil, “Vatandosh, sen Vatan vijdoni bo‘l” 2025- yil, “El sevar” 2025- yil “Uyg‘oq qalblar ovozi” kabi to‘plamlarga ijodiy na’munalari kiritilgan.

Bir qator she’rlari, badialari va ilmiy maqolalari Respublikamiz gazeta va jurnallarida, xorij jurnallarida ham chop etib kelinmoqda.

“Yangi Sirdaryo”, “Tong yulduzi”, “Hurriyat”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Toshkent haqiyqati”, “Samarqand ovozi”, “Postda”, “Gulchehralar”, “Bekajon”, “Ma’rifat”, “Sado”, “Bir safda”, “Talabalar dunyosi” kabi gazeta va jurnallarda she’rlari e’lon qilingan.

2023-yil 24-28-oktabr kunlarida Buxoroda tashkil etilgan Respublika “Ijod” forumida “Eng yaxshi ayol ijodkor” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

U nufuzli mukofotlar bilan ham taqdirlangan:

2024-yil “Scientific Publication” nashriyot markazi MDH miqyosida ilk bor xalqaro ilmiy ishlar tanlovini tashkil etdi. Dildora Oxbutayeva shu tanlovda “ILM-FAN QANOTI” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. "Jadidlar faxri — Umid niholi" statuetkasi bilan taqdirlangan. Mirzo Ulug‘bek nomidagi iqtidorli talabalar stipendiyasi sohibasi.

2025- yil 17-20- avgust kunlarida Samarqandda tashkil etilgan “Ijod” forumida “Gullayotgan este’dod” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

O‘ndan ortiq tezis va maqolalar muallifidir.

Zero “Agar inson irodasi sof, maqsad sari fidokorona yo‘nalgan va o‘zida

okean quyunini mujassamlashtira olgan bo‘lsa, unday iroda ko‘p narsaga qodir, u dahshatli kuchga ega, unga deyarli chegara yo‘q.” deb ta’kidlagandi A. I. GERTSEN

biz quyida ijodkorning o’tli tuyg’ulari jilosini satrlarga betakror va jozibali tashbehlar bilan takrorlanmas badiiy vositalarni talqin qilamiz

Dastlab “Dilginamga dildosh ber, Xudo” She’ridan keltirilgan parchaga yuzlanamiz.

Varaqladim ko‘nglim kitobin,
Bir inja his topmadim aslo.
Charaqlatib qalbim oftobin,
Dilginamga dildosh ber, Xudo 3_4

Ushbu misralarda ishqqa tashna, yor visoliga intilayotgan oshiq lirik qahramonning iztiroblari ta’sirli tarzda yorqin badiiy bo’yoqlarda ifodalangan. “Ko’ngil kitobi, ko’ngil oftobi” kabi betakror o’xshatishlar she’rning jozibadorligini yanada oshirgan.

“ko’ngil oftobini charaqlatish” orqali ijodkor jonlantirish san’atini qo’llagan.

Tuyg‘ularim ummonning rangi,
Tarqab ketdi hijronning zangi.
Qachon tugar gumonning jangi?
Siz ham meni o‘ylayapsizmi?

Yomg‘ir yog‘sa qalbimga chak-chak,
Orzularim quchar belanchak.
Dilda sog‘inch uchar halinchak,
Siz ham meni o‘ylayapsizmi? 4_04

“O‘YLAYAPSIZMI” she’ridan olingan ushbu parchada lirik qahramonning

ichki iztiroblari yorqin baddiy bo'yoqlarda o'z ifodasini topadi. Shoiraning ijodidagi o'ziga xos badiyy tasvir vositalardan foydalanishi alohida ko'zga tashlanadi.

Tuyg'ularni ummonning rangiga qiyoslashi, ayriliqning zangga o'xshatishi o'ziga xos lirik uslubni belgilaydi.

Misradagi "Gumonlar janggi" birikmasi ham ijodkorning noyob topilmasi bo'lib, bu o'xshatishlar she'rning ta'sirchanligini oshiradi va kitobxon qalbining tub-tubiga kirib borishiga xizmat qiladi. She'riy parchaning ikkinchi bandida ishqdan chekilgan hijron ozori yanada kuchayib boradi. Darddan azoblanayotgan lirik qahramon rruhiyatining ta'sirli tasviri o'quvchi qalbida achinish hissini uyg'otadi.

Orzularning belanchak uchishi, sog 'inchning halinchak uchishi tasviri orqali Shoira yor visoliga yeta olmay qiynalayotgan oshiq obrazinining nozik kechinmalarini ifodalaydi. Ikki o't orasida azoblanayotganini misralar qatiga singdirib yuboradi.

Biz hozircha Shoaraning ijodiga qisqa to'xtaldik. Keying tadqiqotlarda uning badiy bo'yoqdor ijodini alohida chuqur tahlilga tortamiz

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Shoira- D.Oxbo 'tayeva ijodida muhabbat mavzusiga ko'p urg'u beriladi. Bu o'lmas mavzu ijodining asosiy muhim mundarijasini tashkil qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

Qahratonda gullagan yurak", [2011],

"Tuyg'ular raqsi", [2014]

"Sarhadsiz sog'inchlar" [2024

https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/tafakkur-gulshani/iroda-va-sabot-matonat-haqida